Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati. ....	607
<i>Mannonova Barno</i>	
Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art .....	611
<i>Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi</i>	
3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	615
<i>Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	618
<i>Soatov E. M.</i>	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati .....	623
<i>Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna</i>	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....	626
<i>Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</i>	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	631
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati .....	636
<i>Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari .....	641
<i>Narzikulov Javohir Ikromovich</i>	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
<i>Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</i>	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar .....	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	



Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
<a href="#">Д. Б. Бабаева</a>	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....	750
<a href="#">Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</a>	

# UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING DIVERGENT FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti  
"Musiqqa ta'limi va san'at" mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi ishlab chiqish bugungi kunda musiqa ta'limining muhim vazifalaridan sanaladi. Shu ma'noda divergent fikrlashning nazariy asoslari, uning musiqiy ta'limdagi roli, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usullarini ko'rib chiqish va ularni rivojlantirishga mazkur maqolada keng o'rin berilgan. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar va kreativ mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilganligi bilan maqola ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** musiqa madaniyati darslari, divergent fikrlash, ijodiy fikrlash, innovatsion pedagogika, interaktiv metodlar, o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi.

**Abstract:** Developing a methodology for fostering students' divergent thinking in general education school music culture lessons is currently one of the important tasks of music education. This article extensively examines the theoretical foundations of divergent thinking, its role in music education, as well as methods for developing students' creative and critical thinking skills. The article highlights opportunities to expand students' thinking through innovative pedagogical technologies, interactive methods, and creative activities in music culture lessons, as well as the development of their independent thinking and problem-solving abilities.

**Key words:** music culture lessons, divergent thinking, creative thinking, innovative pedagogy, interactive methods, students' cognitive development.

**Аннотация:** Разработка методики формирования дивергентного мышления учащихся на уроках музыкальной культуры в общеобразовательных школах сегодня является одной из важных задач музыкального образования. В статье подробно рассматриваются теоретические основы дивергентного мышления, его роль в музыкальном образовании, а также методы развития творческого и критического мышления учащихся. Показаны возможности расширения круга мышления учеников через инновационные педагогические технологии, интерактивные методы и креативные занятия на уроках музыкальной культуры, а также развитие их самостоятельного мышления и навыков решения проблем.

**Ключевые слова:** уроки музыкальной культуры, дивергентное мышление, творческое мышление, инновационная педагогика, интерактивные методы, когнитивное развитие учащихся.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning divergent fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari bu borada eng samarali vositalardan biri sifatida qaraladi. Musiqa o'quvchilarning hissiy, estetik va kognitiv rivojlanishiga ta'sir qiluvchi kuchli vosita bo'lib, u orqali o'quvchilar nafaqat musiqaning melodik va ritmik tuzilmasini o'rganadilar, balki ijodiy tafakkur, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantiradilar. Dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va turli musiqiy vazifalar orqali divergent fikrlashni rivojlantirish metodikasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Musiqa madaniyati darslarida interaktiv metodlar, kreativ mashg'ulotlar, ijodiy loyihalar va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar fikrlash doirasini kengaytirish mumkin. Shu bois, pedagoglarning vazifasi o'quvchilarning kognitiv va hissiy qobiliyatlarini uyg'unlashtirib, ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishdir.

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim jarayonini isloh qilish, uni takomillashgan o'quv dars tizimiga olib chiqish, shuningdek, o'quvchilarda milliy va an'anaviy urf-odat qadriyatlariga sodiqlik, intellektual va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, umumta'lim maktablari musiqiy madaniyat darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish orqali ular nafaqat musiqa san'ati va estetik tafakkurga ega bo'lishi, balki ijodiy, kognitiv va tahliliy qobiliyatlarini ham rivojlantirishi ham asosiy vazifalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'lim-tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etayotgan davrida yoshlarni intellektual, ma'naviy va ijodiy salohiyatga ega shaxslar etib tarbiyalash zarurligini alohida qayd etib, -Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, deb ta'kidlagan fikrlari bugungi ta'lim tizimiga ustuvor maqsadlarni amalga oshirishni belgilab bermoqda. Shu nuqtai nazardan, musiqiy madaniyat darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish nafaqat musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, balki ularning analitik tafakkuri, ijodiy qaror qabul qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Musiqa darslari o'quvchilarga turli janrdagi musiqiy asarlar orqali muammolarni ijodiy yondashuv bilan hal qilish, obrazli tasavvur va kognitiv jarayonlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik va strategik hujjatlari ham maktab ta'limida kreativ va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, pedagoglarni malaka oshirish hamda o'quvchilarning kognitiv va ijodiy rivojlanishiga yo'naltirilgan metodik ishlanmalarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va 2020-yil 7-avgustda Senat tomonidan ma'qullangan, 23.09.2020 yildagi O'RBQ-637-son O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun <sup>[1]</sup> – maktab ta'limining sifatini oshirish, o'quvchilarning kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" <sup>[2]</sup> farmoni – umumta'lim maktablarida innovatsion va kreativ yondashuvlar joriy etilishi, o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirishni rag'batlantirishni ko'zda tutadi.

2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-sonli "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <sup>[3]</sup> qarori – o'quv jarayonida metodik va pedagogik sifatni oshirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, umumta'lim maktab musiqi madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini rivojlantirish, ularni muammolarga ijodiy yondashish, turli musiqiy obrazlar va janrlarni tahlil qilish, hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'quvchilarning nafaqat musiqiy, balki ijtimoiy, kognitiv va estetik rivojlanishiga xizmat qiladi, shuningdek, ularni zamonaviy jamiyatning intellektual va kreativ shaxslariga aylantirishga yordam beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Divergent fikrlash – bu o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va turli muammolarga innovatsion yechimlar topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan fikrlash jarayonidir. Musiqa madaniyati darslarida u odatda erkin va chiziqli bo'lmagan shaklda namoyon bo'ladi, natijada o'quvchilar turli g'oyalar, musiqiy variantlar va kutilmagan aloqalarni yaratish imkoniga ega bo'ladi. Qisqa vaqt ichida turli xil yechimlar sinab ko'riladi, bu esa o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Divergent fikrlash jarayonidan so'ng olingan g'oyalar konvergent fikrlash yordamida tizimlashtiriladi va musiqiy loyihalar, ijro yoki kompozitsiyalarga asoslangan aniq yechimga aylantiriladi. Shu tarzda, divergent va konvergent fikrlash bir-birini to'ldirib, o'quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytiradi va ularni ijodiy faoliyatga jalb qiladi.

Psixolog J. P. Guilford 1956-yilda divergent va konvergent fikrlash tushunchalarini fanga kiritgan bo'lib, ular o'quvchilarning ijodiy va analitik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Musiqa madaniyati darslarida divergent fikrlash metodikasini qo'llash orqali o'quvchilar yangi g'oyalarni izlash, turli uslublarni sinash va o'z ifoda usullarini topish imkoniyatiga ega bo'ladi" <sup>[16]</sup>.

O'quvchilarda divergent fikrlashni shakllantirishda musiqiy ta'lim nazariyasining ahamiyati katta. Boshqacha aytganda, divergent fikrlash – bu mavjud ma'lumot yoki vaziyatdan bir nechta aniq yechimlar ishlab chiqish qobiliyatidir. U ijodiy yondashuvlar bilan muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'lib, umumta'lim

maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi. Musiqa ta'limi o'quvchilarda nafaqat musiqiy bilimlarni, balki keng fikrlash doirasini ham rivojlantiradi, chunki u ritm va melodik tuzilmalarni tahlil qilish, aniq fikrlar ishlab chiqish va ijodiy qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, musiqada divergent fikrlash o'quvchilarning kreativ va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun muhim vositadir. Bu haqida tadqiqotchi J. Ismail shuni ta'kidlaydiki, musiqaviy faoliyat o'quvchilarda ijodiy fikrlash va yechimlar izlashni rag'batlantiradi <sup>[6]</sup>.

Musiqa madaniyati darslari umumta'lim maktablarida o'quvchilarning hissiy, estetik va kognitiv rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu darslarda musiqiy asarlarni tahlil qilish, ijodiy mashqlar bajarish, ritmik improvizatsiyalar orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, ularning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari mustahkamlanadi <sup>[7]</sup>.

Musiqa madaniyati darsida ijodiy topshiriqlar, musiqiy tasvirlar yaratish va aniq musiqiy fikrlar ishlab chiqish imkoniyatlari o'quvchilarga mustaqil fikrlashni shakllantirishga yo'naltiradi <sup>[8]</sup>.

Darslarda o'quvchilarga bitta javobni emas, balki bir nechta original yechim topish imkonini beruvchi vazifalar berish mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Masalan, musiqiy parcha asosida turli kayfiyatlarni tasvirlash, ritmlarga mos tasvirlar yaratish yoki musiqiy tema bo'yicha bir nechta variant yaratish – ularning barchasi o'quvchilarning divergent fikrlashini rivojlantiradi <sup>[9]</sup>.

O'quvchilarga musiqiy muloqot jarayonida turli improvizatsiya mashqlarini bajarish ularning o'z fikrlarini mustaqil ifodalashlari va ijodiy yechimlar ishlab chiqishlarini qo'llabquvvatlaydi <sup>[10]</sup>.

Musiqa tinglash orqali o'quvchilarda divergent fikrlashni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Musiqani passiv tinglashdan tashqari, unga nisbatan savollar berish, musiqaning tuzilishi va kayfiyati haqida fikr bildirish, uni boshqa janrlar bilan solishtirish – bular o'quvchilarning musiqiy idrok va ijodiy fikrlashini mustahkamlash yo'lidir <sup>[11]</sup>.

Sharq pedagogik fikr tizimida san'at va musiqa inson tafakkurini chuqurlashtiradi, hissiy hamda estetik idrokini boyitadi deb asosli fikrlarda o'z ifodasini topgan. Alloma Alisher Navoiy san'atning ruhiy va aqliy rivojga ta'siri haqida shunday fikr bildirgan, – "san'at inson qalbini boyitadi hamda uni hayotiy tajriba va ijodiy tafakkur orqali yaxlit shaxsga aylantiradi. <sup>[4]</sup> Sharq pedagogik an'analari shuni ta'kidlaydiki, musiqa madaniyati orqali o'quvchilar nafaqat san'atni, balki insoniy fazilatlarini, estetik idrokni va tanqidiy fikrlashni ham mustahkamlashlari mumkin <sup>[12]</sup>.

Musiqa darslarida divergent fikrlashni shakllantirishning psixologikpedagogik ahamiyatini yoritishda avvalo, musiqa tinglash va uning ijodiy yondashuvlar orqali o'rganilishi o'quvchilarning diqqat, tasavvur, xotira va ijodiy fikrlashini sezilarli darajada oshirishini muhim sanaymiz. Bu o'z navbatida musiqa madaniyati darslarini estetik, emosional va kognitiv rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi samarali vositaga aylantiradi <sup>[13]</sup>.

Ilmiy izlanishlar shuni ta'kidlaydiki, musiqa orqali o'quvchilar o'z hissiyotlarini ifodalashni o'rganibgina qolmay, balki muammolarga ijodiy yondashish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ularni baholash kabi keng fikrlash ko'nikmalariga ega bo'ladi <sup>[14]</sup>.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirishning samaradorligi bir necha pedagogik va psixologik jihatlardan orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy mashg'ulotlarda o'quvchilarga bir nechta ijodiy yechimlar ishlab chiqish imkoniyati berilganda, ularning kognitiv va estetik idroki sezilarli darajada rivojlanadi <sup>[6]</sup>.

Sharq pedagogik an'analari, jumladan, Abu Nasr Farobiy san'at va musiqa inson tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Farobiy fikricha, musiqa inson ruhiyatini shakllantirib, uning fikrlash, hissiy idrok va ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi: "Musiqa qalbni tinchlantiradi, aqliy faoliyatni faollashtiradi va ongni yangicha fikrlashga rag'batlantiradi" <sup>[5]</sup>. Shu nuqtai nazardan, musiqiy mashg'ulotlarda o'quvchilarga turli janrlarda, ritm va tembrdagi musiqalarni tinglash imkonini berish, ularni ijodiy vazifalar orqali qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Musiqiy mashg'ulotlarda o'quvchilarning improvizatsiya va musiqiy tahlil faoliyati ular orasida mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Masalan, o'quvchilar musiqiy parchalarga turli hissiy obrazlar yaratishda bir nechta yechimlar ishlab chiqishlari mumkin, bu esa divergent fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. <sup>[15]</sup>

Yuqorida keltirilgan fikr va ilmiy asosli mulohazalardan so'ng umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarda divergent fikrlashni shakllantirish metodlarini quyidagicha ishlab chiqdik.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini rivojlantirish uchun turli metod va usullarni qo'llash mumkin. Bu metodlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirish, yangi g'oyalarni izlash va musiqiy ifoda imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Quyida eng samarali metodlar keltiramiz:

- 1. G'oya ishlab chiqarish mashqlari.** "Brainstorming" metodi o'quvchilarga erkin va chiziqli bo'lmagan shaklda musiqiy g'oyalar yaratish imkonini beradi. Masalan, muallim ma'lum bir musiqiy mavzu yoki ritmni berib, o'quvchilardan turli variantlarda ijro yoki yaratishni so'rashi mumkin. Bu usul o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tezkor qaror qabul qilish va kutilmagan yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



2. **Rol o'ynash va dramatisatsiya.** Musiqiy sahnalar yoki rol mashqlari orqali o'quvchilar turli xarakterlarni, hissiyotlarni va musiqiy ohanglarni ifoda etishni o'rganadilar. Bu metod ularning fantaziyasini rag'batlantiradi, musiqiy tafakkur va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi.
3. **Musiqqa kompozitsiyasini yaratish.** O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, o'z musiqiy kompozitsiyalarini yaratishga yo'naltirish divergent fikrlashni samarali rivojlantiradi. Bu jarayonda ular ritm, ohang, temp va musiqqa uslublarini turlicha sinab ko'rishadi, kutilmagan musiqiy aloqalarni topishadi.
4. **“Agar shunday bo'lsa...” usuli (What if...?).** Ushbu metod o'quvchilarda kreativ tafakkur va muammoga innovatsion yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, o'qituvchi: “Agar bu qo'shiqni faqat perkusiyalar bilan ijro qilsak nima bo'ladi?” yoki “Agar ritmni teskari tartibda ijro etilsa qanday ohang hosil bo'ladi?” kabi savollar beradi. Bu o'quvchilarni yangi fikrlar yaratishga undaydi. “Perkusiya” – bu ritmik cholg'ular orqali ijro etiladigan musiqqa janri yoki cholg'u turidir. Oddiy qilib aytganda, perkusiya musiqada urish, taqillatish yoki zarb berish orqali tovush hosil qiladigan asboblarni bildiradi.
5. **Vizual va musiqiy asoslangan integrativlik.** O'quvchilar rasmlar, she'rlar yoki harakatlar orqali musiqqa bilan bog'liq integratsiyalar yaratadi. Masalan, tasviriy san'at asariga mos musiqiy atmosfera yaratish, yoki qo'shiq matniga yangi ritmik va melodik yechimlar qo'shish. Bu metod o'quvchilarda kreativ tafakkur va turli ifoda uslublarini rivojlantiradi.
6. **Individual va guruh ishlari kombinatsiyasi.** Divergent fikrlash individual va guruh ishlarida ham samarali shakllanadi. Individual mashqlar o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirsa, guruh ishlari turli g'oyalarni birlashtirish va yangi musiqiy yechimlarni topishga yordam beradi.

Ushbu metodlar o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Divergent fikrlash orqali o'quvchilar musiqiy g'oyalarni erkin sinab ko'rish, yangi ifoda uslublarini izlash va kutilmagan yechimlar topish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, keyinchalik konvergent fikrlash yordamida g'oyalar tizimlashtiriladi, musiqiy loyihalar va ijro shakllari sifatli va samarali amalga oshiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumta'lim maktablari musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini rivojlantirish ularning ijodiy qobiliyatlarini kengaytirish, musiqiy tafakkurini chuqurlashtirish va yangi musiqiy yechimlar topish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Divergent fikrlash orqali o'quvchilar turli musiqiy g'oyalarni sinab ko'radi, kutilmagan aloqalarni yaratadi va o'z ifoda usullarini boyitadi. Keyinchalik olingan g'oyalar konvergent fikrlash yordamida tizimlashtiriladi va aniq natijalarga yo'naltiriladi. Shunday qilib, musiqqa madaniyati darslarida divergent fikrlash metodikasini qo'llash o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil va faol fikrlashga o'rgatish hamda musiqiy faoliyatda o'ziga xos yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – T., 2020-yil 23-sentabr.
2. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni
3. 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-sonli “Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida” gi Qarori
4. Alisher Navoiy, Mahbub ulQulub, Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005
5. Abu Nasr Farobiy, Kitab al-Musiqqa al-Kabir, Qohira: Al-Maktaba al-Tijariya, 2002
6. Jais Ismail, Divergent Thinking in Musically Gifted Practices: A Review, Quantum Journal of Social Sciences and Humanities, 2020
7. Qodirov R, Musiqqa Ta'limi: Nazariya va Amaliyot, -T.: San'at nashriyoti, 2022
8. Karimov Sh, Musiqiy Pedagogika Asoslari, -T.: IlmZiyo, 2023
9. G'aniyev M, Innovatsion pedagogik yondashuvlar: Musiqqa darslari uchun metodik qo'llanma, Buxoro, 2024
10. Eshonov R, Pedagogik innovatsiyalar: Musiqqa orqali fikrlashni shakllantirish, -T.: 2023
11. Karimova Z, Musiqqa tinglash va pedagogik yondashuvlar, -T.: IlmFan nashriyoti, 2023
12. Tursunov S, Sharq pedagogikasi: Tarix va bugun, Samarqand: 2023
13. Oripova N, Musiqqa ta'limi va psixologik rivojlanish, Jurnal “Ta'lim nazariyasi va amaliyoti”, 2024
14. Bekmurodova A., Musiqqa ijodkorligi va kreativ fikrlash, Jurnal “Pedagogika Innovatsiyalari”, 2024
15. Nusratova T, Creative Thinking and Music in Education, International Journal of Creative Education, 2021
16. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.